

BADIY ADABIYOTDA «HASAD» KONSEPTI

Bahronjonova Charos Sobir qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Tillar fakulteti 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada «HASAD» konseptining diniy manbalarda, xalq og’zaki ijodida, asarlar tarkibidagi semantik xususiyatlar tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: konsept, hasad, badiiy asar, maqollar, hikmatli so’zlar, lug’atlar.

ABSTRACT

This article analyzes the semantic features of the «GRUDGE» concept in religious sources, folklore, works.

Key words: concept, grudge, artistic work, proverbs, wise word, dictionaries.

KIRISH

Ma’lumki, so’ngi yillarda jahon tilshunosligida konseptning o’rganilishiga oid tadqiqotlar ko’payib bormoqda. «Konsept»- lotincha «conceptus» so’zidan olingan bo’lib, «tushuncha» ma’nosini bildiradi. Kongnitiv atamalar lug’atida «Konsept» atamasiga quyidagicha ta’rif beriladi: konsept bizning tafakkurimizdagi aqliy va psixik resurslarning inson bilim va malakalarida aks etishiga xizmat qiladigan tushunchadir.¹

«Hasad» konsepti lug’atlarda «Biron kishidagi Alloh tomonidan berilgan ne’mat yoki fazilatni zavol topib, o’ziga o’tib qolishini xohlashlik» ma’nosini ifodalaydi. Shu o’rinda aytib o’tish kerakki, «Hasad» so’zining haqiqiy va majoziy ma’nolari bor.

Majoziy hasad arab tilida «G’ibta» ya’ni havas deyiladi. G’ibta so’zini «Kimki, Alloh tomonidan bir insonga berilgan ne’matni o’z sohibida barqaror turib, o’zida ham bo’lishini xohlashlik», - deb izohlashimiz mumkin. Darhaqiqat, har birimiz havas qilgan insonimizdan o’rnak olib, yaxshilikka intilib yashaylik! Zero, bizdan faqat yaxshilik qoladi. Haqiqiy hasad esa Alloh bergen ne’matlarni o’z sohibidan ketib, o’zida bo’lib qolishini xohlashlikdir. Albatta, bunday hasad shariatda harom qilingan. Alloh taola o’zining kalomi bo’lmish Qur’oni Karimda hasadchilarga qarata «Va hasad qilgan hasadchining hasadi yovuzligidan»-deya marhamat qiladi². (Falaq surasi, 5- oyat).

Hasad ko’plab gunohlar manbai. Aslini olganda yer yuzidagi eng birinchi mudhish jinoyat ham hasad tufayli amalga oshirilmadimi? Ya’ni yer yuzidagi ilk

¹ Abduraimova B. Kongnitiv tilshunoslikva lingvomadaniyatda konsept tushunchasi. Toshkent. 1225-b.

² <https://www.Sammuslim.uz>.

inson odam Ato va momo Havoning farzandlari Qobil va Hobil o'rtasidagi nizo ham aynan hasad tufayli kelib chiqqandi. Qobil birodari Hobilni ko'rolmasdan, uning joniga qasd qilgan. (Moida surasi, 24-oyat).

Xalq og'zaki ijodida «Hasad» konseptining xususiyatlari. Biz o'z muloqot jarayonimizda fikrlarimizni dalillash maqsadida xalq maqollaridan keng foydalanamiz. Maqollar bizga nutqimizning go'zal, jozibali va ishonchli bo'lishida yordam beradi. Bolalar mакtabga qadam qo'yishganidan ularda vatanga muhabbat, keljakka intilish, mehnatga chanqoqlik kabi tuyg'ularni shakllantirish asosiy vazifamizdir. Bu o'rinda maqollarning o'rni beqiyosdir. Xalq orasida hasad haqida maqollar talaygina. Hasad jirkanch illatdir. U nafaqat hasadchining, balki boshqalarning nozik a'zosi bo'l mish qalbini kasal qilib, uni yemiradi. Shuni nazarda tutib, xalqimiz «Zang temirni kemirar, Hasad-odamni³». -deyishgan. Hasadchining qo'lidan har qanday yomonlik keladi. Bunday insonlar o'zining qabih niyatini amalga oshirish uchun har nega tayyordirlar. Bejizga ota-bobolarimiz «Hasad o'tini-daryo ham o'chirolmas; hasad g'ayratli yovuzlik». - deb aytishmagan. SHunday ekan, hasad insonlarga hech qachon yaxshilik olib kelmagan, olib kelmaydi ham.

«Hasad» konsepti o'zbek xalq maqollarida keng qo'llanilib kelinmoqda.

Maqollar

Havas qilgan yetar,

Hasad qilgan yitar.

Hasad qilma, Havas qil.

Havas bo'lsa, anqoning urug'i ham topilar.

Xashak o'ti xonani kuydirar,

Hasad o'ti tanani kuydirar.

Hasad o'tini daryo ham o'chirolmas.

Tanqidchiga tole yor,

Hasadchiga-halokat.

Hasad ko'chatini ekkan,

Balo mevasini teradi.

³«O'zbek xalq maqollari, 2005, Sharq» kitobi.

Hasad qilma, Havas qil.⁴

Ijodkorlarning fikrlari. Shuningdek, bu borada ko'pgina ijodkorlarimizning fikrlari ham katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Muoviya Abu Sufyon hasadchining yomonligi dushmanidan oldin o'ziga kelishini aytgan: Ey o'g'ilginam, hasaddan saqlangin. Chunki u dushmaninga yetmasdan, sening o'zinga bilinadi. Qadimgi yunon faylasufi Arastu «Dunyoda hammadan ko'ra hasadgo'yning yuki og'irdir, chunki u bechora atrofdagi barcha odamlarning qayg'usini o'z ustiga yuklab yuradi⁵», -deb aytadi. Kamoliddin Binoiy: Hasad barcha xislat, nuqsondan yomon. Hasad ahli barcha yomondan yomon.

Badiiy asarlar tahlili. «Hasad» so'ziga «O'zbek tilining izohli so'zlar lug'ati»da quyidagicha ta'rif berilgan: Kimsaga xos, unga tegishli narsa, fazilat va shu kabilarni ko'rolmaslik, xush ko'rmaslik his-tuyg'usi⁶.

Yuksak qoyadan shiddat bilan qo'zg'algan burgut suruvdagi qo'zichoqni ildi-yu ketdi, zag'cha buni kuzatib turgandi, **hasaddan** ichi kuyib, o'zining ham shunday qilgisi kelib qoldi. (Ezop, «Burgut, zag'cha va cho'pon»). Shuhrat topsang, kishilar **hasadi** yomon, Yolg'iz qolsang, sendan qilishar gumon. (Umar Xayyom). Zaynab unga **hasadlanib** qaradi va kuchlanib aytdi:-Hali yoshga o'xshaysiz-ku.(A. Qodiriy «O'tkan kunlar»). Bir illati bordir xudpisand so'zin, **Hasad** ko'r qilgandi haqiqat ko'zin. (Sa'diy Sheraziy «Bo'stondan»).

O'zbek tili so'zga boy til. Har bir so'zning ma'nodoshi, shakldoshi, zidi bor. «Hasad» so'zining ma'nodoshlari **ko'rolmaslik, rashk, xush ko'rmaslik, qizarish, ichi qoralik, ichi kuymoq**.

Chinakam, bir zamон о'зи шу бечора хотининг устига кундosh bo'lib kelib, uning yuragini timtalagan, uni **rashk, ko'rolmaslik** olovlarida yondirgan edi. (Cho'lpon. «Kecha va Kunduz»).

Hasad va **rashkdan** ichi yonib ketayotgan bo'lsa ham, soxta beparvolik bilan dedi: Bizlar saxiy odam, baxtiyor bo'linglar. (F,Musajon).

«Hasad» har xil holatlarda namoyon bo'lishi mumkin:

Kishi kishining mol-dunyosiga hasad qilganida;

Javondagi qimmat baho buyumlarni ko'rib, **hasadi** qo'zg'aldi.(Mushtum).

Yuragida qo'zg'alib **hasad**, ich-etini yeb, qiyndaldi behad. (S. Ochil).

Kishi rashk qilganda ;

⁴ «O'zbek xalq maqollari, 2005, Sharq» kitobi.

⁵ <https://oyina.uz>.

⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati, 2014-2024.

Labing tegsa, **hasad** qilgum, Gilos birlan uzumdan ham. (E.Vohidov «Rashkim»).

Bu ikki dongdor me'mor o'rtasida azaliy bir yashirin **rashk-u hasad** mavjud. (Mirmuhsin. «Me'mor»).

Kishi kishining fazilatlarini ko'ra olmasdan hasad qilganida;

Javondoz qurg'ur, dunyoning zavqini biladi-da, **-hasadlanib** gapirdi Yormat. (Oybek. Tanlangan asarlar).

Kishi boshqa kishiga Alloh tomonidan berilgan ne'matlarga hasad qilganida;

Malika Oyqizning shunday barkamol yigitga tegayotganidan **hasad** qilmasdi. (M. Mahmudov. «Mangu kuy izlab»).

Haqiqatdanda hasad juda yomon illatdir. Negaki, u insonlar boshiga turli xil ofatlar olib kelishi shubhasiz. Masalan: Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanida Zaynab va Kumushning taqdiri hammamizga ma'lum. Ular o'rtasidagi hasad rashk tufayli yuzaga kelgandi. Kitobxonlarga ayonki, Zaynab hasad o'tidan Kumushga zahar berib, uning joniga qasd qilgan. Hosh aytingchi? U bu ishidan so'ng yori bilan baxtli hayot kechira oldimi? Yo'q. U bu chirkin niyatini yoriga yetishish maqsadida amalga oshirgan edi, afsuski, aynan shu niyati sababli yoridan ayrildi. Bundan tashqari bir insonning o'limiga va bir murg'ak go'dakning yetim qolishiga sababchi bo'ldi. Demak o'z-o'zidan ma'lumki, hasad insonlarni yovuzlikka, qabih ishlar qilishga olib keladi. Shu o'rinda Husayn Voiz Koshifiyning hasad haqida aytgan so'zlarini yodga olish o'rinnlidir: «Hasad balosi ulkan fasodlar paydo qilur. Chunki hasad bag'oyat jirkanch illatdir».

«Hasad» so'zining antonimi **«Havas»** dir. « Havas» so'ziga «O'zbek tilining izohli so'zlar lug'ati»da quyidagicha ta'rif berilgan:

1.Qiziqish, zavq hissi, shunday his-tuyg'uli munosabat. Barcha **havas** bilan bir-biriga boqsa, O'tmasa fisq- fasod, g'iybat yonidan. («Tilagim» she'ridan)⁷.

Men unga: «Shirinmi?» deb tikilaman. U **havasim** kelganini biladi, shekilli, qo'lini orqasiga oldi-da, boshini liqillatib maqtanadi: (Oybek. «Bolaning ko'ngli podsho»).

Sizga zarracha yo'qdir hasadim, Faqat turnalarga qalbimda **havas**.

2. Biror ish-faoliyat, kasb-korga bo'lgan rag'bat, intilish, istak, mayl. Husany Boyqaroning yoshlikdan she'rga havasi kuchli edi. (Oybek. «Navoiy»).

⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati, 2014-2024.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsam, bu hayotda bir insonning boyligi ko'payib ketsa, martabasi yuqorilasa, parvo qilmang. Hasad qilish o'rniga siz ham harakat qiling. Doimo bir-birimizga havas qilib, ulardan o'rnak olib, o'zimiz ham muvaffaqqiyatga erishish uchun harakat qilib yashashimiz kerak. Hasad bu ezgulik kushandas. Haqiqatdan ham hasadchi hasad qilgan insoniga yomonlik tilab, uning muvaffaqqiyatsizligi uchun harakat qiladi. Ota-bobolarimiz aytganidek: «Qachonki, qalbingizda hasad tuyg'usi paydo bo'lsa, yomonlik o'rniga yaxshilik qiling». Hayotimiz qarama qarshiliklar asosida qurilgan. Zulmatni yorug'lik, yovuzlikni ezgulik, yomonlikni yaxshilik yenganidek, qalbimizdag'i hasad olovini havas orqali, yaxshilik qilish orqali o'chirishimiz mumkin. Nazarimda hasadchi inson shu narsani o'ylab ko'rishi kerak -Nega endi boshqalarga hasad qilib yashashim kerak, axir menga berilgan ne'matlar kimlargadir orzuku. Shunday ekan, o'zimizda bor ne'matlarga shukr qilib yashaylik! Zero, Parvardigor o'z fazli karami bilan bir bandasiga ko'proq nasiba bergen ekan, unga nisbattan hasad qilish, uni ko'rolmaslik og'ir gunohlardan biri hisoblanadi⁸.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2014-2024.
2. «O'zbek xalq maqollari, 2005, Sharq» kitobi.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf «Ruhiy tarbiya» 2008-2014.

⁸ <https://www.sammuslim.uz>.